

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

Xo'jageldiyeva To'lqinoy Ergash qizi
Surxondaryo viloyati Sherobod tumani
5-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda o`qish metodikasi adabiy ta`lim metodikasi sifatida ish ko`rishi lozimligi, boshlang`ich sinfda o`qish adabiyot o`qitish sistematik kursiga tayyorlovchi predmet sifatida o`qitilishi, metodika bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisini adabiy ta`limning mazmuniga va uni o`qitishga mustaqil ongli yondasha oladigan, o`zgalarning tajribasini nafaqat o`rganib olmasdan, balki ular faoliyatining natijalarini ongli ravishda tahlil qilib, to`gri xulosa chiqara biladigan bo`lishlari xususida so`z yuritiladi.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo`llanilayotgan metodlar samaradorligiga bog'liq bo`lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rnlardan birini egallaydi.

«Metod (yun. "métodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'li yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usullari degan ma`noni anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qara-tilgan birgalikdagi faoliyatdir. Ta'lim metodlari - o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday boiishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo`lidir. Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini vatamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Ta'lim materiali ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bo`lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi,

o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi.

Ma'lumki, XX asrning 2-yarmida boshlang`ich sinf metodikasida badiiy asarga estetik jihatdan yondashib san`at asari sifatida o`rganish g`oyasi ilgari surilgan bo`lsa, psixologik izlanishlar kichik yoshdagi o`quvchilarning potensial qobiliyati adabiyot dunyosini tanishtirishga boshqacha yondashish kerakligini taqozo etmoqda. Jumladan, N.N.Svetlovskaya o`quvchining mustaqil o`qish nazariyasini ishlab chiqqan bo`lsa, Ye.A.Adamov, M.S.Vasileva, V.G.Goretskiy, M.I.Omorokov, T.G.Ramzaeva va boshqalar badiiy asarning shakl va mazmunini tahlil qilish, L.A.Gorbushina, O.V.Kubasova, L.N.Mali, L.V.Nefedova va boshqalar ishlab chiqqan metodikada o`quvchilarning ijodiy ishlariga, ayrimlar esa o`qish texnikasini rivojlantirish zarurligini qayd etdilar.

Shunday qilib, boshlang`ich ta`lim metodikasi metodik fan sifatida shakllanish bosqichlarini bosib otdi. Ma'lumki, badiiy asarlarni o`qish bilan bog`liq holda shaxsni estetik tarbiyalash, ya`ni bilim berish, tarbiyalash va e`tiqodlarini shakllantirish; ya`ni mакtabda o`qitiladigan predmetlar kabi bolalar adabiyoti namunalarini san`at asari sifatida o`rganish vazifalari o`qish darslariga yuklatiladi. Har bir fan o`zining o`ganish ob`ekti va predmetiga ega bo`lganidek, hozirgi kunda boshlang`ich sinflarda o`qish metodikasi adabiy ta`lim metodikasi sifatida ish ko`rishi lozimligi g`oyasi ilgari surilmoqda. Haqiqatan ham, adabiyot o`qitish sistematik kursiga tayyorlovchi predmet sifatida o`qish metodikasi bolalar adabiyoti namunalari asosida o`z maqsad va vazifalarini belgilaydi. Shundan kelib chiqqan holda boshlang`ich sinfda o`qish darslarining o`rganish ob`yekti – o`quvchilarning adabiy ta`limni egallash jarayoni deb belgilanishi maqsadga muvofiqdir. “Adabiy ta`lim” atamasi o`zaro bog`liq bo`lgan uch jarayonni o`z ichiga oladi:

- 1) adabiy-badiiy asarlar bilan aloqa jarayonida shaxs tarbiyasi;
- 2) o`qitish, ya`ni bolalar adabiyotini maktab fanlaridan biri sifatida o`qitish;
- 3) shaxsning o`zini rivojlantirishini shakllantirish

Hozirgi kunda metodikadan boshlang`ich sinf o`qituvchilari aniq dalillangan, ilmiy asoslangan ko`rsatmalarni kutmoqda. Metodika bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisini adabiy ta`limning mazmuniga va uni o`qitishga mustaqil ongli yondasha oladigan, o`zgalarning tajribasini na faqat o`rganib olmasgan, balki ular faoliyatining natijalarini ongli ravishda tahlil qilib, to`gri xulosa chiqara biladigan bo`lishlarini ta`minlaydi.

M.A.Ribnikova metodikaning asosi sifatida 4ta didaktik qoidani keltiradi:

1.Ta`lim o`quvchilarning anglashlariga har tomonlama ta`sir etuvchi xarakterda bo`lishi.

2.O`quvchilar oldilariga qo`yilgan masalani aniq tushunishlari.

3. Metodist yangi murakkab hodisalarini tanish hodisalardek oson ko`rsata olishi mahoratiga ega bo`lishi.

4. Deduksiyani induksiya bilan bog`lashi.

O`zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'larning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan: - boshlang'ich sinf o'quvchilarining tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; - boshlang'ich ta'limgani ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish; - boshlang'ich ta'limgan samaradorligiga erishish. Mazkur vazifalar oliy pedagogik ta'limgan jarayonida o'qitilayotgan “Boshlang'ich ta'limgan pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” fanining mazmunini belgilaydi. Unga ko`ra, mazkur fanning mazmuni boshlang'ich ta'limgan, tarbiya va uni o'qitish asoslari bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarga nazariy bilim, ko'nikma hamda malaka berishdan iborat.

Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim: - boshlang'ich ta'limgan tushunchasi quyidagilarni qamrab oladi:

- 1) inson va jamiyat qadriyatlariga asosan 7-11 yoshli o'quvchilarga bilim berish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash jarayoni;
- 3) boshlang'ich ta'larning samarasiga erishish;
- 4) boshlang'ich ta'limgan yaxlit tizim sifatida qabul qilish.

- boshlang'ich ta'limgan tarbiya tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilariga insoniyatning tarbiyaga oid tajribasini uzatish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarini madaniyat va qadriyatlar olamiga olib kirish;
- 3) boshlang'ich sinf o'quvchilarini shaxsini rivojlantirish;

4) boshlang'ich ta'limgan o'quvchilarini hayotning murakkab vaziyatlari va holatlariga tayyorlash.

- boshlang'ich ta'limgan o'qitish tushunchasining mazmuni quyidagilardan iborat:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim, hayotiy tajriba, faoliyat ko'nikmasi berish va ularning tafakkurini shakllantirish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malaka hislarini shakllantirish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotira, diqqat va fikr yuritish ko'nikmasini shakllantirish;

4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish, layoqat va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish.

Ushbu uch muhim kategorial tushuncha “Boshlang'ich ta'limgan pedagogikasi” fani mazmunini tashkil qiladi. Bu fan vositasida O'qituvchi 7-11 yoshli shaxslarga dastlabki ta'limgan va tarbiyani beradi, ularni o'qish ko'nikmasini shakllantiradi. Ayni paytda mazkur fanning mazmuniga ko`ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini quyidagilarga amal qilishi shart:

1) o'qishi, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilari aniq ma'lumotlarni va topshiriqlarni O'qituvchi yordamida sinfdoshlari bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda o'zlashtirishi;

2) kuzatish, qiyoslash va fikrlash ko'nikmalarini egallashi;

3) o'z fikri va qarashlarini ifodalay olishi kerak.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'lim pedagogikasi mazmunini tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o`qitishning electron didaktik ta'minoti texnologiyasini ishlab chiqish.-Toshkent, 2021.
2. Умарова З.А. Бошланғич таълим дидактикаси. Academic Research In Educational Sciences Volume 2 | ISSUE 2 | 2021. ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. 556-562-бет
3. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Music as a Scinece and its peculiarities. International Journal of Innovative Analyeses and Emerging Technology.
4. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Dutar national instruments and performance methods. Analytical Journal of Education and Development, 1(06).
5. Qizi, K. M. E., & Ugli, C. S. N. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 67-71.
6. Khojageldiyeva, M. E., & Sayfiddinova, S. A. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DUTAR AND METHODS OF ITS PERFORMANCE. Экономика и социум, (4-2 (95)), 211-214.
7. Xo'jageldiyeva, M. Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqaning bola tarbiyasida tutgan o'rni. International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education.
8. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923.
9. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 13-15.
10. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
11. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
12. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923.
13. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 13-15.

14. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
15. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923
16. Kho'jageldiyeva, M. Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2(4).
17. Pardayevna, H. N. (2022). MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS'COPING SKILLS. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(3), 127-130.
18. Akramovna, S. S. (2021). Dutar National Instruments and Performance Methods. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 329-331.
19. ED Uktamovna. (2023). FORM, METHODS AND MEANS OF FORMING CHILDREN'S MUSICAL ABILITY. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 58-62
20. HN Pardayevna. (2023). UMUM TA'LIM MAKTABLARI "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINING MAZMUNI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 63-66.
21. CS Nasriddin o'g'li (2023). CONTENT OF MUSIC CULTURE LESSONS AND ELEMENTS ORGANIZING THE MUSIC EDUCATION SYSTEM. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 18 (8), 72-77
22. Ходжагельдыева Махфузা Эргаш кызы 2022/11/15 ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА ДУТАР И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ Новости образования: исследование в XXI веке 1-том 4-номер 486-490
23. Khojageldiyeva Mahfuzza Ergash qizi 2022/6/30 THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 563-566
24. Khojageldiyeva Mahfuzza Ergash qizi 2022/4/27 Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes European Journal of Innovation in Nonformal Education 13-15